

Bizning sinf


*Ustida, yonida, ichida, tepasida, tagida,
orqasida, oldida, o'ngda, chapda so'zlari*



1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Bizning sinfimiz yorug'. Sinfda partalar va kitob javoni bor. Kitob javoni doskaning yonida. Televizor doskaning tepasida. Sinfda uchta deraza bor. Deraza tokchalariga gullar qo'yilgan. Javon ustida globus turibdi. Kitob javoni ichida qiziqarli kitoblar ko'p.

Biz sinfimizni toza saqlaymiz.



Old, orqa, ich, ust, yon, o'rta, tag, atrof, o'ng, chap, tepa so'zlari o'rin-joy, manzilning qayerda joylashganini bildiradi. Bu so'zlarga **-ga, -da, -dan** qo'shimchalari qo'shiladi.

**2-topshiriq. Savollarga javob bering.**

1. Sinfingizda nimalar bor?
2. Sinf doskasi qayerda joylashgan?
3. Kitob javoni ichida nimalar bor?
4. Gullar qayerga qo'yilgan?

**1-mashq. Gap mazmuniga mos so'zlarni tanlab, gaplarni ko'chiring.**

1. Sinfingizni toza (*arting, saqlang*).
2. Nazorat ishi daftarlarni o'qituvchining stoli ustiga (*bering, qo'ying*).
3. Lug'at so'zlarini daftaringizga (*yozing, chizing*).
4. Navbatchilar, sinf doskasini (*yozing, arting*).
5. Sinf doskasiga mashqni (*sanang, yozing*).
6. Poldagi qog'ozlarni chelakka (*tering, soling*).

**2-mashq. Rasmlarni so'z bilan ifodalab, gaplarni ko'chiring.**

ga yangi jihozlar olib kelindi. Devorga



osildi. Doskaning tepasiga



joylashtirildi.



ichiga kitob va

daftarlarni qo'yilgan.



tepasida



ham bor. O'qituvchining



da daftarlarni va ko'rgazmali qurollar turadi.



yonida

chelak turibdi. Eshikning o'ng tomonida



bor.



1-topshiriqdagi matnni so'zlab bering. Lug'atdagi so'zlarni yodlang. Ular ishtirokida to'rtta gap tuzing.

